



IMKONIYAT FE'LI (BILMEK) NING QO'LLANILISH DOIRASI HAQIDA

Zoirjon Davlatov

*Toshkent davlat sharqshunoslik
universiteti o'qituvchisi*

Annotatsiya. *Imkoniyat fe'li (bilmek) nig qo'llanilish doirasi haqida ma'lumot beriladi. Ushbu fe'lning turk tilida yordamchi fe'l sifatida qo'llanilishi borasida misollar bilan yoritib beriladi. Jumladlarda fe'lning vazifaviy shakllari bilan qo'llanilib turli xil ma'no anglatishi yoritib beriladi.*

Kalit so'zlar: *bilmek, leksema, sema, bosh ma'no, mustaqil ma'no, ravish, sifatdosh, harakat nomi, modal so'z.*

Annotation. *Information is provided about the scope of the verb of opportunity (bilmek). The use of this verb as an auxiliary verb in Turkish will be explained with examples. Different meanings of the verb are explained in the sentences using functional forms.*

Key words: *bilmek, lexeme, sema, main meaning, independent meaning, adverb, adjective, verb, modal word.*

Аннотация. *Дана информация о значении глагола возможности (билмек). Использование этого глагола в качестве вспомогательного глагола в турецком языке будет объяснено на примерах. Различные значения глагола поясняются в предложениях с использованием функциональных форм.*

Ключевые слова: *билмек, лексема, сема, основное значение, самостоятельное значение, наречие, прилагательное, глагол, модальное слово.*

O'zbekiston mustaqillikka erishgach, xorijiy tillarni o'rganish, o'rgatishga bo'lgan ehtiyoj ortdi. Zero, chet tillarni mukammal egallash o'z navbatida bu sohaning yetuk bilimdonlarini, tarjimonlarni etishtirish imkonini beradi. Bu holat chet mamlakatlar bilan ijtimoiy, madaniy, iqtisodiy aloqalarni mustahkamlash imkonini yaratadi. Shu bois, xorijiy tillar, jumladan, turk tilining spetsifik belgilarini tadqiq etish va aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi. Turk tilining fonetik, leksik, morfologik, sintaktik xususiyatlari turk va xorijlik tilshunoslar, jumladan, rus turkologlarning qator tadqiqotlarida maxsus o'rganilgan. Quyida turk tilidagi **bilmek** fe'lining semantik tahlilini ko'rib chiqamiz. Turk tilidagi ko'makchi fe'llardan eng faoli **bilmek- bilmog** fe'li hisoblanadi. Ayni shu sabab bu fe'lning ma'nolari asosida bilmek leksemasini insoniyat aspekti ko'rsatkichi sifatida e'tirof etilishiga sabab bo'lgan. Umuman olganda, bu fe'l turk tilshunosligida ham imkoniyat fe'li tarzida farqlanadi.





Bilmek fe`lining bosh semasi “biror narsani aniqlamoq yoki bilgan bo`lmoq”dir. [10, 78]. Masalan: *Çünkü iyi **bilirim**ki insan kendisini ancak kendisini koruyabilir (R.H.K.). Çünkü yaxshi bilamanki, inson o`zini faqat o`zini himoya qila oladi.*

Bilmek ko`makchi fe`li yetakchi fe`lga **-(y)a/-(y)e** ravishdosh ko`rsatkichlari yordamida birikadi. Masalan: *Yalnızca parası olmadığı için, paralı bir takım adamların yanına **sokulabilmek** hakkında yoksun durumda (R.H.K.). Faqat puli yo`qligi uchun, puldor bir to`da odamlarning yoniga kirib olish darajasida qiynalgan ahvolda. Bu gülümsemeğe çocuksu, saf **denilibilerdi** (R.H.K.). Bu kulimsirashni bolalarcha sof deb aytish mumkin edi.*

Bilmek fe`li ko`makchi fe`l vazifasida qo`llanganida, quyidagi ma`nolarni ifodalashga xizmat qiladi. O`rganilyotgan ko`makchi fe`l yetakchi fe`ldan anglashilgan ish-harakatning bajarilishi yoki holatning yuzga kelishini ifodalaydi.

Masalan: *Ancak iyilik ve güzellik tanrıçası bu derece içten gelem bir atılımla, bir minnettarlıkla, kendinden geçme hali ile **karşılanabilir** (R.H.K.). Faqat yaxshilik va go`zallik ma`budasida bu darajada yurak qa`ridan kelgan bir intiqlik, bir minnatdorchilik bilan, deyarli behush bir ahvolda kutib olinishi mumkin.*

Bunday hollarda yetakchi fe`ldagi xarakatning bajarilishidan ham ko`ra, undan yuzaga keladigan holat asosiy o`rinda tyradi. Masalan: *Bayılmadan bunu **düşünebilmişim** (R.H.K.). Hushimdan ketishimdan oldin shu xayolimga kelgan edi. Nedenini sorduğunda ancak **ağlayabildi** (R.H.K.). Sababini so`rganida faqat yig`lay oldi. Keltirilgan gaplardagi **düşünebilmek** – o`ylab olmoq, **ağlayabilmek** – yig`lay olmoq qo`shma fe`llaridagi ko`makchi fe`l yetakchi fe`l bildirgan ish-harakatning bajarilishini, ma`lum holat, ya`ni **düşünmek-** o`ylamoq, **ağlamak-** yig`lamoq holatlarining maydonga kelishi ma`nosini ifodalaydi.*

Bilmek-bilmoq ko`makchi fe`li o`timli va o`timsiz fe`llar bilan qo`llanilishi mumkin. Masalan, quyidagi gaplarning birinchisida qatnahgan **açabilmek** –**ocha olmoq** leksemasida **bilmek** fe`li o`timli fe`lga birikkan. Ikkinchisida esa **çıkmak-chiqmoq** o`timsiz fe`lli ishtirokida kelgan: *Gözlerimi **açabilsem** yüzüne de bakacağım (R.H.K.). Ko`zlarimni ocha olsam, yuziga ham qarayman. Artık giyinip küçük salona **çıkabilence** konuşacağım. Endi kiyinib, kichik zalga chiqa olganimda gaplashaman.*

Bilmek leksemasi ko`makchi fe`l vazifasini bajarganida, ish-harakatning bajaruvchi subyekti tomonga yo`nalgani ma`nosini ifodalaydi. Masalan: *Kapıları*





*kırmadan **durabilir miyim?** Eshiklarni sindirmay tura olamanmi? İstersen yüzümü deđıştirebilirim ben! İstasang yuzimni o`zgartira olaman.*

Shuningdek, **bilmek** ko`makchi fe`li bilan yasalgan birikuvlarda yetakchi fe`ldan anglashilgan holatni tutib turuvchi shaxs subyektning o`zi yoki boshqa shaxs bo`lishi mumkin. Masalan: *Benim Tancaya gitme iznini **alabilmem de** aylarca sürdü (R.H.K.). Mening Tanjaga ketish iznini olishim ham ouylarcha davom etdi.* Ayni gapda holatni tutib turuvchi shaxs so`zlovchilardir.

Bilmek ko`makchi fe`li shu bilan birga, ba`zi fe`llar bilan ishlatilganida bir marotaba bajariladigan ish-harakat ma`nosini anglatishi mumkin. Masalan: *Sizin gibi güzel kız davet eder de ben hiç yok **diyebilir miyim** (A.Y.)? Sizday go`zal qiz taklif qiladi-yu, men yo`q deya olamanmi? Onun kamarasına giden yol üzerinden kuytu bir yer seçtim. Bekliyorum, aynı zamanda **gözetliyebiliyorum** da ... (R.H.K.). Uning kayutasiga olib boruvchi yo`l ustidan qorong`i bir joyni tanladim. Kutayapman, aynı paytda kuzata olaman ham.* Keltirilgan gaplardagi ajratib ko`rsatilgan qo`shma fe`llar bir marta bajarilgan ish- harakat ma`nosini anglatadi.

O`rganilyotgan ko`makchi fe`l bu holatda yetakchi fe`l bildirgan ish- harakatning bajaruvchi shaxs (yoki narsa) tomonida ro`yobga chiqarilishi, uni amalga oshirish qobiliyatiga, salohiyatiga qodirlik ma`nosini anglatadi. Masalan: *Dünyoda yalnız bir şey ona muhteriz sükütünü kaybettiriyor, ruhunda heyecana, ihtirasa benzer duygular **uyandırabiliyordu**: Musıki ... (R.H.K.). Dunyodagi faqat bir narsa undagi qo`rqinch sukutini yo`qota olar, ruhida hayajonga, ehtirosga o`xshash narsa uyg`ota olardi: musiqa ... Ushbu jumladagi **uyandırabilmek** – fe`li harakat bajaruvchining ma`lum bir harakatini bajarish qo`lidan kelishi semasini anglatgan.*

Bilmek fe`li yetakchi fe`l bildirgan ish-harakatni bajarish imkoniga egalik, qodirlik ma`nolarini anglatadi. Masalan: *Eğer teyze ile teyze kızı anahtar deliğinden bu sahneyi **seyredibilseler** gülmekten kırılırlar. Agar xola bilan xolaning qizi qulf teshigidan bu sahnani kuzata olsalar qotib-qotib kulardilar. Şehire gidip **dönebilirim**, deđil mi? (R.N.G.). Shazarga ketib qaytib kela olaman, shunday emasmi?*

Mazkur gapdagi **seyredibilmek** –kuzata olmoq, **dönebilmek** – qaytib kela **olmoq** qo`shma fe`llari tarkibidagi **bilmek** ko`makchi fe`li yetakchi fe`ldan anglashilgan harakatni ado etish harakat bajaruvchining imkoniyati doirasida ekani, uning qo`lidan kelishi ma`nosi anglashiladi.





Bilmek ko`makchi fe`li yetakchi fe`lning ma`nosiga bog`liq holda, muayyan voqe-hodisaning ro`y berish ehtimoli borligi ma`nosini anglatadi. Masalan: *Senin de, benim de başımızdan belki daha ciddi aşklar **geçebilir** (R.N.G.). Keyinchalik sening ham, mening ham boshimdan yanada jiddiy muhabbatlar o`tishi mumkin. Kötülük gene benden **gelediler**: Seylon`da yaptığım gibi (R.H.K.). Yomonlik Yana men tufayli yuz berishi mumkin: Seylonda qilganimdek.*

Bilmek ko`makchi fe`li yetakchi fe`ldan anglashilgan ish- harakatning amalga oshishi uchun hech qanday to`siq yo`qligi, to`siq, mone`lik bo`lgani taqdirda ham bajaruvchining harakatni amalga oshirish uchun izn, ruxsat yoki imkoniyat mavjudligi ma`nosi anglashiladi: *Tamamiyle iyi olaman için bir gece, iki gece daha **bekleyebilirim** (R.N.G.). Butunlay tuzalib ketishing uchun yana bir kecha, ikki kecha kutishim mumkin. Tereddütlerinden hatta muvakkat düşmelerinden korkmayalım, ondaki istidat onu çok ileri **götürebilir** (R.N.G.). Taraddutlaridan, hatto vaqtinchalik ruhiy tushkunligidan qo`rqmaylik, undagi iste`dod uni ancha ilgari olib borishi mumkin.* Qayd etilgan gaplardagi **bekleyebilmek** –kuta olmoq, **götürebilmek** – jo`nata olmoq fe`llari bildirgan harakatning hech bir to`squinliksiz amalga oshirish imkoni borligi ma`nosi ifodalanadi.

Misollardan ko`rinadiki, ish-harakat bajarilishiga to`siqning yo`qligi ma`nosi ishlatilgan **bilmek** ko`makchi fe`li o`zbek tilidagi –(i) **shi mumkin** shaklli fe`lga xos ma`noni anglatadi.

Bimek fe`li bo`lishsiz shaklda qo`llanganida, yetakchi fe`l bildirgan ish-harakatni bajara olish imkoniyatiga, qobilyatga ega emaslik, qodir emaslik ma`nolarini anglatadi. Masalan: *Düşündüklerimi iyice **anlatabilmem**, bende bulunmayan yüksek bir kalem gücüne gerek gösteriyor. O`ylaganlarimni yaxshilab tushuntira olmayman, menda bo`lmagan yuksak bir qalam qudratiga zarurat bor.*

Demak, **bilmek** fe`li yetakchi fe`ldagi harakatni bajarishga qodirlik, shu harakatning subyekti qo`lidan kelishi (bo`lishsiz shaklda) qodir emaslik ma`nolarini anglatadi. Zero, N.A. Baskakovning ta`kidlashicha, **bilmoq** ko`makchi fe`lining bu ma`noda qo`llanilishi o`g`uz guruhlariga mansub turkiy tillar uchun xarakterli hisoblanadi. Boshqa guruhga oid tillarda bu ma`noda asosan, olmoq ko`makchi fe`li ishlatiladi. [5, 381]





Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abduraxmonova M. O`zbek va turk tillarida ot kategoriyalarining talqini: Filol fan. Nomz ... dis. Avtoref. T., 2004.- 26 b.
2. Айляров Ш.С. Развёрнутые члены предложения в современном турецком языке.-М.: Изд. МГУ, 1974. - 227 с.
3. Atabay N., Kutluk İ., Özel S. Sözcük Türleri. - Ankara: Ankara Üniversitesi basımevi, 1976. S.
4. Atabay N., Özel S., Ayfer Ç. Türkiye Türkçesinin Sözdizimi.-İstanbul: Papatya, 2003. -142 s.
5. Баскаков Н.А. Каракалпакский язык. М. Наука, 1952.-С. 381-382.
6. Hengirmen M. Türkçe Dilbilgisi. –S. 268.
7. Karay R.H. Nilgün. - İstanbul:İnkilap, 1986.-754 s.
8. Karay R.H. Memleket hikayeleri. - İstanbul: İnkilap:19.-s.
9. Örnekleriyle Türkçe Sözlük. –İstanbul: Doğan A.Ş., 2004, -C,3.-S.2159.
- 10.Türkçe Sözlük. C.I.-S.78

